liklar orqali bilamiz. Bu shuni anglatadiki, bugungi idrok allaqachon qayta ishlangan, tanlab berilgan axborotga asoslanmoqda. Natijada haqiqat va tasvir o‘rtasidagi farq kamayib, bilish jarayoni qisman algoritmlar tomonidan boshqarilishiga olib kelmoqda. Demak, zamonaviy sharoitda bilish jarayoni oddiy ikki tomonlama munosabat emas, balki uch tomonlama –“inson – texnologiya – voqelik” o‘rtasidagi murakkab tizimga aylandi.

Xaydeggerning “borliqni unutish” konsepsiyasi bugungi virtual muhitda dolzarb bo‘lib, unga ko‘ra, inson voqelikdan uzoqlashib, simulyakrlar dunyosida yashay boshladi, deb izohlaydi [7;250-b.]. Yevropa va Osiyoda insonlar tafakkur uslubidagi transformatsiyalarning qiyosi asosida Yevropada transformatsiya individualizm asosida kechayotganligini, Osiyoda esa jamoaviy va texnologik integratsiya kuchliroq ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Bu tafakkur uslubining madaniy determinantlarga bevosita bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Xulosa va takliflar. Virtual obrazlar va simulyakrlar zamonaviy inson tafakkurining strukturaviy asoslarini o‘zgartirmoqda. Yevropa va Osiyo jamiyatlari misolida ko‘rish mumkinki, bu transformatsiya global bo‘lsa-da, uning namoyon bo‘lish shakllari madaniy kontekstga bog‘liq. Bugungi kunda voqelik mediatsiyalashgan shaklda idrok etilmoqda, tafakkur vizual, algoritmik va sinergetik shaklga o‘tmoqda, simulakrlar sekin-asta real voqelik o‘rnini egallamoqda, buning oqibatida yangi epistemologik paradigma shakllanmoqda.

Shu bois falsafiy tadqiqotlarda virtual voqelik va tafakkur transformatsiyasini chuqur o‘rganish zamonaviy ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida yuzaga chiqmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Wendy H. Updating to Remain the Same: Habitual New Media. Cambridge, MIT Press, 2016. 371 p.
(2). Гуссерль Э. Логические исследования. Том II, М., “Гнозис”, 2001, 390 с.
(3). Давид Ю. Трактат о человеческой природе. М., “Наука”, 1996, 221 с.
(4). Yves C. The Ecology of Attention. Cambridge, “Polity Press”, 2017, 313 p.
(5). Susan S. On Photography. New York, Straus and Giroux, 1977, 214 p.
(6). Декарт Р. Размышления о первой философии. М., “Мысль”, 1994, 262 с.
(7). Хайдеггер М. Бытие и время. М., Ad Marginem, 1997, 250 с.

Abdiyev G‘ayrat Ergashevich (Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, kasbiy malakalarni rivojlantirish bo‘yicha bosh mutaxassis, tarmoq kengashi kotib, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent)

KOMMUNIKATSIYA JARAYONLARI VA YOSHLAR SIYOSATIDAGI INNOVATSION TENDENSIYALAR

Annotatsiya. *Maqolada kommunikatsiya falsafasi doirasida ijtimoiy muloqotning insonparvarlik tamoyillarini tahlil qilib, yoshlar siyosatida innovatsion kommunikatsion tendensiyalarni konseptual asoslashni maqsad qiladi. Metodologiya sifatida falsafiy-germenevtik tahlil, normativ yondashuv va qiyosiy konseptual tahlil qo‘llanadi. Natijalar muloqot etikasi, ishonch infratuzilmasi va raqamli muhitda inklyuzivlik mezonlarini tizimlashtiradi. Ilmiy hissa innovatsiyani texnik yangilik emas, insonparvarlikka yo‘naltirilgan ijtimoiy amaliyot sifatida asoslaydi.*

Kalit so‘zlar: *kommunikatsiya falsafasi, ijtimoiy muloqot, insonparvarlik tamoyillari, yoshlar siyosati, innovatsiya, raqamli kommunikatsiya, ishonch.*

ИННОВАЦИОННЫЕ КОММУНИКАЦИОННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ В МОЛОДЁЖНОЙ ПОЛИТИКЕ

Аннотация. *В статье в рамках философии коммуникации анализируются гуманистические принципы социального общения и ставится цель концептуально обосновать инновационные коммуникационные тенденции в молодежной политике. В качестве методологии используются философско-герменевтический анализ, нормативный подход и сравнительный концептуальный анализ. Результаты систематизируют этику общения, инфраструктуру доверия и критерии инклюзивности в цифровой среде. Научный вклад заключается в обосновании инновации не как технической новизны, а как социально ориентированной практики, направленной на гуманистические ценности.*

Ключевые слова: *философия коммуникации, социальное общение, гуманистические принципы, молодежная политика, инновация, цифровая коммуникация, доверие.*

INNOVATIVE COMMUNICATION TRENDS IN YOUTH POLICY

Annotation. *The article analyzes the humanistic principles of social interaction within the framework of the philosophy of communication and aims to provide a conceptual justification of innovative*

communication trends in youth policy. The methodology includes philosophical-hermeneutic analysis, a normative approach, and comparative conceptual analysis. The findings systematize the ethics of communication, the infrastructure of trust, and criteria of inclusivity in the digital environment. The scientific contribution lies in substantiating innovation not merely as a technical novelty, but as a socially oriented practice grounded in humanistic values.

Keywords: *philosophy of communication, social interaction, humanistic principles, youth policy, innovation, digital communication, trust.*

Kirish. Kommunikatsiya masalasi zamonaviy ijtimoiy nazariya va amaliy boshqaruvning markaziy tushunchalaridan biriga aylangan bo‘lsa-da, uning falsafiy negizlari, ko‘pincha, texnologik yondashuvlar soyasida qolib ketadi. Ayniqsa, yoshlar siyosatida kommunikatsiya, odatda, axborot yetkazish, xabar tarqatish yoki ijtimoiy tarmoqlarda ko‘rinish yaratish vositasi sifatida talqin qilinadi. Bunday instrumental qarash innovatsiyani ham, asosan, platforma, ilova, kanal yoki algoritmik optimallashtirish darajasiga qisqartiradi. Holbuki, kommunikatsiya falsafasi kommunikativ amaliyotning ma’nosi, axloqiy chegaralari, o‘zaro tan olinishi va ijtimoiy hamkorlikni yuzaga keltiruvchi mexanizmlarini tahlil qilish orqali innovatsion tendensiyalarni insonparvarlik mezonlari bilan o‘lchash imkonini beradi. Ilmiy muammo shundaki, yoshlar siyosatidagi innovatsion kommunikatsiya, ko‘pincha, tezkorlik va qamrov mezonlari bilan baholanadi, biroq muloqotning insonparvarlik tamoyillari, ya’ni, shaxs qadr-qimmati, ishtirok, adolatli eshitilish, zo‘ravonliksiz tushunish, mas’uliyatli murosa va ishonchni tiklash kabi kriteriylar yetarli darajada konseptualizatsiya qilinmagan.

Mazkur bo‘shliq ayniqsa raqamli muhitda yaqqol ko‘rinadi: kontentning ko‘payishi, algoritmik tavsiyalar, tezkor reaksiya madaniyati va fragmentlangan e’tibor sharoitida yoshlar bilan muloqot, ko‘pincha, monologik, normativ-buyruqboz yoki manipulyativ shakllarga og‘ib ketadi. Bunday tendensiyalar ijtimoiy muloqotning insonparvarlik tamoyillariga zid bo‘lib, befarqlik va kommunikativ charchoqni kuchaytiradi. Shu sabab maqola kommunikatsiya falsafasi doirasida ijtimoiy muloqotning insonparvarlik tamoyillarini aniqlashtirish, ularning yoshlar siyosatidagi innovatsion tendensiyalarni baholash va yo‘naltirishdagi metodologik ahamiyatini asoslashni maqsad qiladi. Tadqiqotning vazifalari quyidagicha konseptual yo‘nalishda hal etiladi:

•birinchidan, kommunikatsiya falsafasidagi asosiy yondashuvlar orqali muloqotning normativ-aksiologik poydevorini ochib berish;

•ikkinchidan, insonparvarlik tamoyillarini ijtimoiy muloqot mezonlari sifatida tizimlashtirish;

•uchinchidan, yoshlar siyosatida innovatsion kommunikatsiya tendensiyalarini ushbu mezonlar asosida tahliliy tasniflash va risklarini ko‘rsatish;

•to‘rtinchidan, amaliy jihatdan muloqot dizayni uchun konseptual tavsiyalarni shakllantirish. Tadqiqot nazariy jihatdan kommunikativ adolat va ishonch infratuzilmasi tushunchalarini aniqlashtiradi, amaliy jihatdan esa yoshlar bilan ishlashda raqamli va an’anaviy kanallarda insonparvarlikka tayangan muloqot standartlarini ishlab chiqish uchun asos beradi.

Metodlar. Tadqiqot metodologiyasi kommunikatsiya falsafasi va ijtimoiy muloqot nazariyalariga tayangan holda, bir nechta o‘zaro bog‘liq yondashuvlarni uyg‘unlashtiradi. Birinchi yo‘nalish sifatida falsafiy-germenevtik tahlil qo‘llanadi: bunda “muloqot”, “insonparvarlik”, “ishtirok”, “tan olish”, “javobgarlik” kabi tushunchalarning ma’nodosh qatlamlari va normativ mazmuni talqin qilinadi. Germenevtik usul muloqotni faqat axborot almashinuvi emas, balki ma’no ishlab chiqarish va o‘zaro tan olinishi jarayoni sifatida ko‘rish imkonini beradi, bu esa yoshlar siyosatidagi innovatsion tendensiyalarni texnik yangilik darajasidan ijtimoiy-axloqiy amaliyot darajasiga ko‘taradi.[1]

Ikkinchi yo‘nalish normativ-aksiologik yondashuv bo‘lib, muloqotning insonparvarlik tamoyillari mezonlarini ishlab chiqishga xizmat qiladi. Bu yerda muloqot etikasi, diskursiv legitimlik va o‘zaro hurmatga asoslangan kelishuv g‘oyalari muhim metodologik tayanch bo‘ladi.[2] Normativ yondashuvning afzalligi shundaki, u innovatsion kommunikatsiyaning samaradorligini faqat statistik qamrov yoki “engagement” ko‘rsatkichlari bilan emas, balki muloqotning adolatli tuzilishi, eshitilish kafolatlari va shaxs qadrini himoya qilish kabi kriteriylar orqali ham baholashni ta’minlaydi.

Uchinchi yo‘nalish qiyosiy konseptual tahlildir. Unda kommunikatsiya jarayonlariga doir turli ilmiy traditsiyalar, xususan, simvolik interaksionizm, ijtimoiy konstruktivizm va tizimli yondashuvning ayrim

[1] Апель К.О. Трансформации философии. Москва, “Logos”, 2001, с. 344.

[2] Habermas J. The Theory of Communicative Action. Vol. 1, Boston, “Beacon Press”, 1984, 465 p.

g‘oyalari qiyoslanib, yoshlar siyosatiga tatbiq etish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi.[1] Bu usul innovatsion tendensiyalarni bir yoqlama maqtash yoki inkor etmasdan, ularning muloqot sifati va ijtimoiy hamkorlikka ta’sirini konseptual ravishda ochishga yordam beradi. To‘rtinchi yo‘nalish sifatida analitik sintez qo‘llanadi: unda nazariy qarashlar asosida yoshlar siyosatidagi kommunikatsion innovatsiyalar uchun “insonparvarlikka yo‘naltirilgan dizayn” mezonlari umumlashtiriladi. Tadqiqot empirik statistik ma’lumot to‘plashni maqsad qilmaydi; uning obyekti nazariy va normativ konseptlar hamda ularning amaliy kommunikatsion jarayonlarni izohlashdagi imkoniyatlaridir. Shu bois tanlangan metodlar mazkur maqsadga adekvat bo‘lib, ilmiy yangilikni konseptual asoslashga yo‘naltirilgan.

Natijalar. Tadqiqot natijalari ijtimoiy muloqotning insonparvarlik tamoyillari kommunikatsiya falsafasi nuqtayi nazaridan, uch qatlamda namoyon bo‘lishini ko‘rsatdi. Birinchi qatlam ontologik-mazmuniy bo‘lib, muloqotning mohiyati shaxslararo munosabatni “narsa” sifatida boshqarish emas, balki o‘zaro tan olinishi orqali ijtimoiy reallikni birgalikda barpo etish jarayoni ekanini asoslaydi. Bu yondashuvda insonparvarlik muloqotning tashqi qo‘shimchasi emas, balki uning ichki sharti sifatida ko‘rinadi: muloqot muvaffaqiyati kommunikativ hamkorlikda har bir ishtirokchining subyektligi saqlanganda yuzaga keladi. Yoshlar siyosatida bu natija innovatsion tendensiyalarni “yoshlarni yo‘naltirish”dan ko‘ra “yoshlar bilan birgalikda ma’no ishlab chiqish” paradigmasiga o‘tkazish zarurligini ko‘rsatadi.

Ikkinchi qatlam normativ-mezoniy bo‘lib, insonparvarlik tamoyillari muloqot sifatini baholovchi tizimli kriteriylar sifatida ishlab chiqildi. Tadqiqot ushbu mezonlarni quyidagi mazmuniy yo‘nalishlarda tizimlashtirishga olib keldi: shaxs qadr-qimmatining tan olinishi va til jihatidan hurmat; eshitilish va ishtirok imkoniyatlarining tengligi; asoslantirishga tayangan ochiqlik va haqiqatga sodiqlik; javobgarlik va va’dalarning bajarilishi orqali ishonchni mustahkamlash; muloqotdagi zo‘ravonliksiz tushunish, ya’ni bosim, kamsitish yoki manipulativ ta’sirdan voz kechish. Ushbu mezonlar innovatsion kommunikatsiya tashabbuslarini baholashda universal “axloqiy filtr” vazifasini bajaradi, chunki ular texnologiyadan qat’i nazar muloqotning insoniy o‘lchovini markazga qo‘yadi.

Uchinchi qatlam amaliy-dizayn bo‘lib, yoshlar siyosatidagi innovatsion tendensiyalar aynan qaysi kommunikativ mexanizmlar orqali insonparvarlik tamoyillarini kuchaytirishi yoki susaytirishini aniqlashtirdi. Natijalarga ko‘ra, raqamli platformalarga tayangan muloqot bir vaqtning o‘zida ikki qarama-qarshi imkoniyatni beradi: bir tomondan, past kirish to‘siqlari, tezkor qayta aloqa va keng qamrov orqali ishtirokni kengaytiradi; boshqa tomondan, fragmentatsiya, kontekst yo‘qolishi va algoritmik ko‘rinishlar notengligi sababli eshitilish adolatini buzishi mumkin. Shu asosda “ishonch infratuzilmasi” tushunchasi natija sifatida ajratildi: u muloqotning texnik kanallari emas, balki qoidalar, shaffoflik, moderatsiya madaniyati, murojaatlarni ko‘rib chiqish tartibi va javobgarlik mexanizmlarining yig‘indisi ekanini anglatadi. Yoshlar siyosatida innovatsion tendensiyalar barqaror bo‘lishi uchun aynan shu infratuzilma insonparvarlik tamoyillariga mos qurilishi zarurligi aniqlandi.

Bundan tashqari, tadqiqot “kommunikativ adolat”ni yoshlar siyosatining kommunikatsion komponentini baholash uchun integrativ natija sifatida taklif etadi. Kommunikativ adolat deganda muloqotda mavqe, resurs, til kompetensiyasi yoki platformaviy ko‘rinishdagi farqlardan kelib chiqadigan notengliklar yumshatiladigan, pozitsiyalar asoslantirish orqali raqobatlashadigan va qarorlar tushunarli tarzda izohlanadigan tartib tushuniladi. Bu natija innovatsiyani faqat yangilik kiritish emas, balki adolatli muloqot tartiblarini ishlab chiqish sifatida qayta talqin qilishga olib keladi.

Muhokama. Olingan natijalar kommunikatsiya falsafasida muloqotning normativ asoslari haqidagi qarashlar bilan uyg‘un ekanini ko‘rsatadi, biroq yoshlar siyosati kontekstida ularning qo‘llanishi alohida izoh talab qiladi. Habermasning kommunikativ harakat nazariyasi muloqotning ratsional asoslantirish va o‘zaro tushunishga yo‘naltirilganligini ta’kidlarkan, muloqotni legitimlik manbai sifatida ko‘radi [2][2]. Mazkur maqoladagi “kommunikativ adolat” natijasi aynan shu yondashuvning yoshlar siyosatiga moslashtirilgan ko‘rinishi bo‘lib, amaliy jarayonlarda eshitilish, asoslantirish va shaffof izoh talabini kuchaytiradi. Biroq yoshlar bilan muloqotda ratsionallikning yagona modeli ustun qo‘yilsa, hissiy tajriba va identifikatsiya ehtiyojlari soyada qolishi mumkin. Shu sabab muhokamada muloqotni faqat “dalil almashinuvi”ga tushirmasdan, tan olinishi va empatiya talab qiladigan insoniy jarayon sifatida ko‘rish muhimligi qayd etiladi; bu jihat Axel Honnethning tan olish nazariyasi bilan mazmunan hamohangdir [5].[3] Tan olish tamoyili

---

[1] Berger P.L., Luckmann T. The Social Construction of Reality. New York, “Anchor Books”, 1966, 240 p.
[2] Habermas J. The Theory of Communicative Action. Vol. 1, Boston, “Beacon Press”, 1984, 465 p.
[3] Honneth A. The Struggle for Recognition. Cambridge, “Polity Press”, 1995, 215 p.

yoshlar siyosatida innovatsion kommunikatsiyaning eng nozik nuqtasini ko‘rsatadi: yoshlar o‘zini subyekt sifatida his qilmasa, eng zamonaviy platforma ham ishonchni yaratmaydi.

Shu bilan birga, raqamli kommunikatsiya sharoitida “ishonch infratuzilmasi” natijasi Castells ta’kidlagan tarmoq jamiyati mantig‘i bilan izohlanadi: tarmoqlarda axborot oqimlari tezlashar ekan, institutlar va auditoriyalar o‘rtasidagi munosabatlar ko‘proq kommunikatsion konfiguratsiyalarga bog‘lanadi [4].[1] Biroq tarmoq mantig‘i o‘zi avtomatik ravishda insonparvarlikni kafolatlamaydi; aksincha, ko‘rinishlar iqtisodiyoti, shov-shuv va tezkor reaksiya me’yorlari muloqot sifatini pasaytirishi mumkin. Shuning uchun maqolada ishonch infratuzilmasi texnologik yechimlardan ko‘ra boshqaruv va etik qoidalar bilan belgilanadigan ijtimoiy tizim sifatida talqin qilindi. Bu pozitsiya Bauman tasvirlagan “suyuq” ijtimoiylik sharoitida barqarorlikning kamayishi va munosabatlarning tez eskirishi haqidagi tahlillar bilan ham muvofiqlashadi: ishonchni saqlash uchun muloqot doimiy ravishda qayta ishlab chiqilishi zarur [6].[2] Yoshlar siyosatida bunday qayta ishlab chiqish innovatsiya sifatida ko‘rilishi mumkin, chunki u kommunikativ amaliyotlarning moslashuvchan, ammo tamoyillarga sodiq modelini talab qiladi.

O‘zbek ilmiy an’anasida ma’naviy-axloqiy omil va shaxs kamoloti masalalari, ko‘pincha, ijtimoiy munosabatlarning markazida talqin qilinadi. Bu yo‘nalish, muloqot insonparvarlik tamoyillariga tayanishi kerak degan natijani kuchaytiradi, ammo uni faqat tarbiyaviy-didaktik doiraga qamab qo‘ymaslik zarur. Masalan, Otamurodov ijtimoiy boshqaruvda jamoatchilik bilan aloqalar va muloqotning ishonch yaratishdagi rolini ko‘rsatadi, biroq ishonchning o‘zi shaffoflik va javobgarlik mexanizmlariga tayanishini ham ta’kidlaydi [7].[3] Mazkur maqolada bu fikr “ishonch infratuzilmasi” konseptsiya bilan yanada tizimlashtirildi: ishonch shaxsiy niyat emas, institutsional va kommunikativ tartiblarning natijasidir. Yusupovning ijtimoiy falsafiy qarashlarida esa jamiyat barqarorligi ma’naviy qadriyatlar bilan birga muloqot madaniyatiga ham bog‘lanadi [8].[4] Ushbu maqola natijalari muloqot madaniyatini innovatsion tendensiyalar bilan qaramaqarshi qo‘ymasdan, aksincha, raqamli sharoitda madaniyatni qo‘llab-quvvatlaydigan dizayn mezonlari orqali talqin qilish mumkinligini ko‘rsatadi.

Rossiya ilmiy maktabida kommunikatsiyaning semiotik va madaniy o‘lchoviga kuchli e’tibor qaratiladi. Yuri Lotmanning semiosfera g‘oyasi muloqotni belgilar va ma’nolar makoni sifatida ko‘rib, har qanday axborot almashinuvi madaniy kodlarga tayanishini anglatadi [9].[5] Bu pozitsiya yoshlar siyosatida innovatsion kommunikatsiya dizaynini “universal til”ga keltirishga urinishlar xavfli ekanini ko‘rsatadi: yoshlar guruhlari turli submadaniy kodlarga ega, ularni e’tiborsiz qoldirish esa muloqotning insonparvarlik tamoyillariga zid bo‘lgan bepisandlik sifatida qabul qilinishi mumkin. Shu nuqtada maqolada ilgari surilgan eshitilish adolati va tan olish mezonlari madaniy farqlilikni kommunikatsion resursga aylantirishga xizmat qiladi.

Natijalar bilan bog‘liq tanqidiy jihat shundan iboratki, insonparvarlik tamoyillarini mezon sifatida taklif etish ularni amaliy baholashni ham talab qiladi. Biroq ushbu maqola konseptual-normativ xarakterga ega bo‘lgani uchun u empirik indikatorlar tizimini to‘liq ishlab chiqmaydi. Shunga qaramay, nazariy muhokama shuni ko‘rsatadiki, indikatorlarning o‘zi ham insonparvarlikka mos bo‘lishi kerak: faqat ko‘rsatkich ortidan quvish muloqotni yana instrumentalizatsiyaga qaytaradi. Demak, kelgusida empirik tadqiqotlar sifat ko‘rsatkichlari, ishtirokchilarning tajribasi va muloqotning adolatli tuzilishi kabi o‘lchovlarni uyg‘unlashtirgan holda olib borilishi maqsadga muvofiq.

Xulosa. Maqola kommunikatsiya falsafasi doirasida ijtimoiy muloqotning insonparvarlik tamoyillari yoshlar siyosatidagi innovatsion tendensiyalarni mazmunan yo‘naltiruvchi va baholovchi konseptual mezon ekanini asoslab berdi. Tadqiqot muloqotni shaxslarning o‘zaro tan olinishi va ma’no birgalikda yaratiladigan jarayon sifatida talqin qilib, innovatsiyani texnologik yangilik darajasidan ijtimoiy-axloqiy amaliyot darajasiga ko‘tardi. Insonparvarlik tamoyillari shaxs qadr-qimmati, eshitilish va ishtirok tengligi, ochiqlik, javobgarlik, zo‘ravonliksiz tushunish kabi mezonlar orqali tizimlashtirildi hamda raqamli muhitda ishonch infratuzilmasini qurish zarurati ko‘rsatildi. Ilmiy hissa sifatida kommunikativ adolat tushunchasi yoshlar bilan ishlashda innovatsion kommunikatsiya dizaynining integrativ kriteriyi sifatida taklif etildi. Amaliy jihatdan natijalar raqamli platformalarda muloqot qoidalari, shaffof qayta aloqa va mas’uliyat mexanizmlarini insonparvarlikka moslashtirish zarurligini ko‘rsatadi. Kelgusidagi izlanishlar ushbu mezonlarni em-

---

[1] Castells M. The Rise of the Network Society. Oxford, Blackwell Publishers, 1996, 556 p.

[2] Bauman Z. Liquid Modernity. Cambridge, “Polity Press”, 2000, 240 p.

[3] Otamurodov S. Jamoatchilik bilan aloqalar va ijtimoiy boshqaruv. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2016, 192-bet.

[4] Yusupov E. Ijtimoiy falsafa va taraqqiyot konsepsiyalari. Toshkent, “Fan”, 2012, 256-bet.

[5] Лотман Я.М. Семиосфера. Санкт-Петербург, “Искусство-SPB”, 2000, с. 704.

pirik baholash indikatorlari, turli yosh guruhlari uchun mos kommunikatsion formatlar va muloqotdagi risklarni boshqarish strategiyalarini ishlab chiqishga qaratilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Апель К.О. Трансформации философии. Москва, "Logos", 2001, с. 344
(2). Habermas J. The Theory of Communicative Action. Vol. 1. Boston, "Beacon Press", 1984, 465 p.
(3). Berger P.L., Luckmann T. The Social Construction of Reality. New York, "Anchor Books", 1966, 240 p.
(4). Castells M. The Rise of the Network Society. Oxford, "Blackwell Publishers", 1996, 556 p.
(5). Honneth A. The Struggle for Recognition. Cambridge, "Polity Press", 1995, 215 p.
(6). Bauman Z. Liquid Modernity. Cambridge. "Polity Press", 2000, 240 p.
(7). Otamurodov S. Jamoatchilik bilan aloqalar va ijtimoiy boshqaruv. Toshkent, "O'zbekiston", 2016, 192-bet.
(8). Yusupov E. Ijtimoiy falsafa va taraqqiyot konsepsiyalari. Toshken, "Fan", 2012, 256-bet.
(9). Лотман Я.М. Семиосфера. Санкт-Петербург, "Искусство-SPB", 2000, с. 704.

Abduraxmonov Xasan Ibroximovich (PhD, Toshkent davlat Transport universiteti dotsenti; hasanabdurahmonov1991@mail.ru)

SUN'IY INTELLEKT TARAQQIYOTI VA YOSHLAR INNOVATSION TASHABBUSKORLIGI O'RTASIDAGI FALSAFIY-DIALEKTIK BOG'LIQLIK

Annotatsiya. *Ushbu maqolada sun'iy intellekt taraqqiyoti va yoshlar innovatsion tashabbuskorligi o'rtasidagi falsafiy-dialektik bog'liqlik tahlil qilinib, sun'iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi yoshlarning ijodiy fikrlashi, tashabbuskorligi va innovatsion faoliyatiga qanday ta'sir ko'rsatishi ilmiy asosda yoritib berilgan.*

Kalit so'zlar: *sun'iy intellekt, yoshlar, innovatsiya, dialektika, texnologiya falsafasi, qarama-qarshilik, rivojlanish, ijodkorlik, raqamli jamiyat, tashabbus.*

Абдурахмонов Хасан Иброхимович (доцент, PhD, Ташкентский государственный транспортный университет; hasanabdurahmonov1991@mail.ru)

ФИЛОСОФСКО-ДИАЛЕКТИЧЕСКАЯ ВЗАИМОСВЯЗЬ МЕЖДУ РАЗВИТИЕМ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА И ИННОВАЦИОННОЙ ПРЕДПРИИМЧИВОСТЬЮ МОЛОДЁЖИ

Аннотация. *В данной статье анализируется философско-диалектическая взаимосвязь между развитием искусственного интеллекта и инновационной инициативностью молодежи. Научно обосновывается влияние развития технологий искусственного интеллекта на формирование творческого мышления, инициативности и инновационной активности молодежи.*

Ключевые слова: *искусственный интеллект, молодёжь, инновации, диалектика, философия технологий, противоречие, развитие, творчество, цифровое общество, инициатива.*

Abdurahmonov Xasan Ibroximovich (Associate Professor, PhD, Tashkent State Transport University; hasanabdurahmonov1991@mail.ru)

THE PHILOSOPHICAL-DIALECTICAL INTERRELATION BETWEEN THE DEVELOPMENT OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND YOUTH INNOVATIVE INITIATIVE

Annotation. *This article analyzes the philosophical and dialectical relationship between the development of artificial intelligence and youth innovative initiative. It scientifically substantiates how the advancement of AI technologies influences the formation of creative thinking, initiative, and innovative activity among young people.*

Keywords: *artificial intelligence, youth, innovation, dialectics, philosophy of technology, contradiction, development, creativity, digital society, initiative.*

Kirish (Introduction). Jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichi ikkita muhim jarayon bilan tavsiflanadi: sun'iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi va yoshlarning innovatsion tashabbusining iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning asosiy omili sifatida ahamiyati oshishi. Agar sun'iy intellekt intellektual mehnatning potentsial "o'rnini bosuvchi" sifatida qaralsa, unda yoshlar an'anaviy ravishda yangi, xolis qarashning tashuvchisi va "yutuq" g'oyalarining generatoridir. Sirtda bu hodisalar, ko'pincha, raqobatdosh, hatto antagonistik ko'rinadi. Biroq falsafiy va dialektik yondashuv tashqi qarama-qarshilik ortida bir hodisa boshqasining rivojlanishi uchun zarur shart bo'lgan chuqur munosabatni ko'rishga imkon beradi. Ushbu tadqiqotning dolzarbligi innovatsion sohada inson va texnologiyaning o'zaro ta'siri haqidagi soddalash-